



BOLALARNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA “IJTOIMOIIY ODOBLAR” ASARIDAN FOYDALANISHNING IMKONYATLARI

To‘raqulov A. R.

*Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim
metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi*

Abdullayeva K.M.

*Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti Boshlang‘ich
ta‘lim 3-bosqich talabasi*

Tayanch so‘zlar: odob, kiyinish odobi, ijtimoiy odoblar, suhbat odobi, Islomiy odoblar, tasavvuf ilmi, jamodot, nabotot.

Ключевые слова: этикет, этикет одежды, светский этикет, разговорный этикет, исламский этикет, наука суфизм, джамадот, наботот.

Key words: etiquette, dress etiquette, social etiquette, conversational etiquette, Islamic etiquette, the science of Sufism, jamadot, nabotot.

Kirish. Mamlakatimizda yosh avlodni ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘gil-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma‘naviyatli, odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Buning misollarini biz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy – ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi



O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida” gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022 — 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil va natija. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir so‘z bilam aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘van ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidladi Prezidentimiz. Bu vazifa maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya sohasining barcha bog‘inlari-maktabgacha ta’lim, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’irlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o‘z samarasini beradi. Maktabda oqitish metodikasi va tarbiya berish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Dunyoda umumta’lim maktab o‘quvchilarida ochiqkongillik, o‘zgalarga hurmat, qonunga itoat qilish, masalalarga tanqidiy baho berish va har tomonlama fikr yuritish kabi ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirish, maktab ta’limida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik dasturlar va yo‘llarini takomillashtirishga bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘z navbatida umumta’lim maktab bitiruvchilarining ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy odoblarini hozirgi zamon talablariga xos bo‘lgan shakllarini kengaytirish, o‘quvchilarda ijtimoiy muloqatchanlik va kompetentlikni qaror toptirish orqali yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash alohida dolzablik kasb etadi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish hamda ularning ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Anashu nuqtai nazardan o‘quvchilarda ma’naviy kompetentlikni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning „Ijtimoiy odoblar” asaridan foydalanib rivojlantirish maqsadida joriy tizimga yangi vaziyatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.



Tilimizda “odob” tarzida talaffuz qilinishiga odatlanib qolingan arabcha “adab” so‘zi aslida yaxshilikka chaqirishni anglatadi. U “ma’daba” so‘zidan olingan. Ma’daba esa odamlarni ziyofatga chaqirishni anglatadi. Odob ham odamlar doimo da’vad qilinadigan ma’naviy”. ya’ni ziyofat bo‘lgani uchun shu nomni olgan. Demak, odob yaxshilik demakdir. “Falon kishi odobli ekan” deyilgani o’sha odamning yaxshiligi ko‘p ekan deganidir. “Kishining odobi” deganda yaxshilab ya’ni did bilan kiyinish tushuniladi. “Suhbat odobi” deganda suhbatni eng yaxshi saviyada olib borish ko‘zda tutiladi. Bundan kelib chiqib fikr qiladigan bo‘lsak “Ijtimoiy odoblar” ijtimoiy muomalalarni eng yaxshi tarzda olib borish deganidir.

O‘tmishga fozil insonlarning asarlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Abu Muhammad “Kitobul vo‘iy” asarida:

“Odob odamlarni maqtalgan narsalarga chaqirgani uchun odob deb nomlangan” deydi.

Abu Zayd rahmatullohi alayhi:

“Odob fazilatlaridan biriga eltuvchi yaxshi urinishlarga ishlatiladigan nom” deya takidlagan.

Albatta, har bir kishi kasb-korni mukammalbilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-odob, fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak. Hozirgi kunda g‘arb madaniyati ta’sirida “odob”ni madaniyat deyish ham joriy bo‘lgan. Misol uchun, “ovqatlanish odobi”deyish o‘rniga “ovqatlanish madaniyati” deyiladi. Ba’zida ijtimoiy odoblar degan ma’noni ifoda etish uchun fransuzcha “etiket” so‘zi ham ishlatiladi.

Bilamizki odob masalasi Islomda va ta’lim olishda o‘ta muhim o‘rin tutadi. Chunki Alloh taolaga ishonch hosil qilishda odobning o‘rni juda muhim. Agar ta’lim jarayoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, odobli o‘quvchi o‘qituvchining har bir aytgan so‘ziga e’tibor qaratadi uni jon qulog‘i bilan eshitadi, u uchun ustozining har bir aytgan so‘zi qadrli bo‘ladi. Beodoblik barcha narsani, jumladan, amalni ham, qalbni ham, tilni ham, boshqa barcha urinishlarni ham buzadi. Odobsiz odam biror narsaga erishishi, jamiyatda yaxshi o‘rin topishi mumkin emas. Odobsiz kishi hatto boshqalar bilan aloqasi, munosabatlarini ham yaxshilay olmaydi. Shuning uchun ham tasavvuf axlini g qoidalaridan birida : „Odob bo‘lmaguncha, Haq va xalq bilan sayri suluq bo‘lmas«, deyilgan. Shuning uchun ham mashoyixlar: „Kim nimaga erishsa, faqat odob bilan erishadi. Kim nima bilan qulasa, faqat beodoblik bilan qulaydi» deganlar. Yaxshi odob aslida nafsning kamolotga yetgani, uning intizomliligi, jilovlangani va yaxshilikda ekanining alomatidir. Aksincha, beodoblik nafsning hali poklanmagani, jilovlanmagani va intizomda emasligi alomatidir.

Odob ikkiga: nazariy va amaliy jihatga bo‘linadi. Odob oldin nazariy jihatdan o‘rganiladi va keyin unga amal qilinadi. Fikr yuritib ko‘radigan bo‘lsak, odobning doirasi shu darajada kengki, oddiy narsalarga nisbatan bo‘lgan odobdan boshlab, to barcha narslarning Robbiga nisbatan bo‘ladigan odobgacha bor. Islomda



odobning yaxshilikka chaqirish ma'nosi insonga bog'langan barcha narsalarda namoyon bo'ladi, ya'ni musulmon insonning o'zi bilan bog'liq barcha narsaga odob bilan-yaxshilik yuzasidan muomala qilishi yo'lga qo'yilgan. Bu muomalalar jamodot-jonsiz narslardan boshlanadi. Keyin nabotot olamiga, so'ngra hayvonot olamiga o'tadi, so'ngra esa insoniyat olami, farishtalar olami va hokazo olamlarni qamrab oladi. Islomdagi odoblar musulmon insonning o'z Nabiyi va Robbisiga ko'rsatadigan odobi ila toj kiyadi, kamolga yetadi.

Mana shunday keng doiradagi sharaffi odoblarga amal qilish avvalo kishining o'zi uchun foydalidir. Misol uchun, choy ichadigan piyolamizni olib ko'raylik. Kishi odobli bo'lsa, o'sha piyolani avaylab ishlatadi, toza tutadi. Natijada piyola uzoq vaqt unga ko'ngildagidek xizmat qiladi. Agar o'sha odam piyolaga nisbatan beodoblik qilsa, uning labi uchadi, kir bo'ladi, darz ketadi va oxiri sinadi. Mana shu holatni boshqa har bir katta-kichik narsalarda ham ko'rib, mulohaza qilishimiz mumkin. Har bir narsada dinimiz ko'rsatadigan odobga amal qilsak, avvalo bu dunyomiz uchun, asosiysi, oxiratimiz uchun yaxshilik kasb qilgan bo'lamiz.

Keltirib o'tilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'quvchilarda singdirishda ijtimoiy insitutlarni o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy institutlarning faolligini yanada oshirish uchun barcha jamoatchilik tashkilotlari tinmay mehnat qilmoqda. Maqsadimiz o'quvchi-yoshlarning ijtimoiylashuv omillarini aniqlab ularni rivojlantirish yo'lidagi imkoniyatlar ko'lamini yanada oshirishdir. 16-17 yoshdagi o'quvchilar fikr-u xayoliga har qanday buzg'unchi g'oyalarning kelmasligi, ularning ongiga bunyodkorlik g'oyalarni singdirish orqali band etish kerak. Ularda ma'naviy tahdidlar domiga tushmasligi, mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish uchun biz ijtimoiy odoblarni o'rgatib borishimiz darkor. Ma'naviy yetuk bo'lgan insonlarni hech qanday ma'naviy tahdidlar, buzg'unchi g'oyalar, soxta axborotlar bilan aldab bo'lmaydi. Ma'anviy barkamol inson har qanday ytomon vaziyatlarda ham o'z pozitsiyaga ega bo'lib, eng maqbul variantda ish ko'rib to'g'ri qaror qabul qila oladigan shaxslardir.

Umumta'lim maskanlarida ta'lim oluvchilarning qiziqish va ehtiyojlaridn kelib chiqib ushbu kiritilgan kompetentlik ko'rinishlari kelajakda yoshlarni eng avvalo mustaqil qaror qabul qilish, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish ko'nimasini shakllantiirb beradi. Olilaning mas'uliyati, sha'ni qadr-qimmati bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar silsilasini davom ettirish burchini anglashga yordam beradi. Inson hayotga qilayotgan ishlari, kasb-u koridan rozi bo'lib yashashi uchun ham harakat qilmog'i, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni yuksaltirish uchun ham tinmay bilim olish ilinjida yuradi. O'quvchilarda haqiqiy insoniylik fazilatlarining shakllanganligi, axloqiylikning ko'rinishlarining namoyon bo'lishi uning tarbaiyalanganlik darajasini yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Bu ulug' ishlarning safarbarligini o'z zimmasiga olgan o'qituvchi-tarbiyachilardan esa puxtabilim,

yuqori malaka, kasbiy mahorat talab betiladi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan rag'batini oshirish, ularga motivatsiya berish ham aynan o'qituvchilar, otanonalar va mahalla hamkorligi doirasida ularning zimmasidga yuklatilgan bo'lib, ular bu jihatlarni o'z navbatida o'rganib chiqadilar, tadqiq etadilar.

Kuzatishlarimiz davomida biz 10-11-sinf o'quvchilarini uchun mo'ljallangan "Tarbiya" darsliklarini o'rganib chiqdik. Darsliklarda berilgan ma'naviy kompetentlik mavzular doirasida kiritilgan. Unda pedagogik ta'sir etish usullari orqali tushuntirib o'tilgan, ibrat-namuna vositasida misollar keltirib o'tilgan. Ushbu darslik, metodik qo'llanmalar orqali berilgan BKMLarni o'zlashtirgan o'quvchi-yoshlar kelajakda barkamolm shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan komil shaxs bo'lib yetishadi, Vatan va xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Respublikamizda ta'lim markazlarida kitoblar ta'minoti, ularni o'quvchilar auditoriyasiga yetkazib berish, xorij namunalari asosida so'nggi texnologiyalar bilan o'quv adabiyotlarni nashrga tayyorlash yuqori sifat darajasini bevosita ko'rishimiz mumkin. Biz tadqiqot olib borayotgan "Ijtimoiy odoblar" asari yuzasidan ijtimoiy odoblar tushunchasiga tarif berib o'tishni zarur deb bildik. Odob so'zi arabcha "adab" so'zidan olingan bo'lib yaxshilikka chaqirishni anglatadi. Odobning quyidagi ta'riflari ham bor: "Maqtovg'a sazavor so'z va amalni ishlatish, qilish odobdir", "Karamli axloqlarni ushlab odobdir", "O'zingdan kattani ulug'lab, o'zingdan maydaga mehr ko'rsatishing odobdir". Demak, odob yaxshilik demakdir. "Falon kishi odobli ekan" o'sha kishining yaxshiliklari ko'p ekan, deganidir. "Kiyinish odobi" deganda yaxshilab kiyinish tushuniladi, "Suhbat odobi" deganda suhbatni eng yaxshi saviyada olib borish ko'zda tutiladi. "Ijtimoiy odoblar" ijtimoiy muammalarni eng yaxshi tarzda olib borish deganidir. Umumta'lim muassasalarida 10-11-sinflar mo'ljallangan fanlar doirasida o'quvchilarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun "Tarbiya", "Adabiyot", "Ona tili", "O'zbekiston tarixi", "Iqtisod", "Informatika" fanlari doirasida integratsiyalashgan ta'lim asosida biz ma'naviy kompetentlikni tadqiq etishimiz mumkin. Ko'rsatib o'tilgan fanlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Ularning barchasida uyg'unlik mujassamlangan. Tadqiqot mavzuyimiz yuzasidan oladigan bo'lsak, Biz 10-11-sinf o'quvchilari ma'naviy kompetentligini rivojlantirishda Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlaridan foydalanish "Ijtimoiy odoblar" asari misolida tadqiq etmoqdamiz. "Ijtimoiy odoblar" asari orqali o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-kompetentlik shakllantirish, tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlararo integratsiyani targ'ib etmoqchimiz. "Ijtimoiy odoblar" asari odob-axloq, axloq qoidalari to'g'risidagi Islom ta'limotining zamonaviy asarlarimiz sirasiga kiradi. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (r.a.) hazratlari zamondosh shayxlarimizdan biri hisoblanadi. Biz bu inson bilan bir diyorda yashab istiqomat qilib, ul kishining o'rgatgan pand-u nasihatlarini asosida jamiyatimizdagi yomon illatlarni bartaraf



etishda daxldorlik tuygʻusini his eta oldik. Bu insonning nafaqat mamlakatimiz oldida balki butun islom olami uchun qilgan xizmatlari tahsinga loyiq. Shuning uchun koʻpchilik insonlar qalbida chuqur oʻrin egallaganlar. “Ijtimoiy odoblar” asari orqali bugungi bizga lozim boʻladigan maʼnaviy-axloqiy fazilatlar keltirilgan. Biz asarda keltirilgan “Ijtimoiy odoblar”ni bir butunlikda jamladik.

Ushbu klaster orqali biz asarda keltirilgan odob turlarini keltirib oʻtdik. Misol uchun “Ijtimoiy odoblar” asarida berilgan Yoshlar odobiga toʻxtaladigan boʻsak, “Inson hayotining har bir bosqichi muhimdir, Maskur muhim bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik inson umrida eng nozik davr hisoblanadi. Yoshlik insonning quvvatga toʻlgan va xarakatchanligi ziyoda boʻlgan vaqtdir. Shu bilan birga yoshlik davri insonning hayot yoʻllari chorraxasida turgan payti hamdir. Agar oʻsha chorraxada inson yaxshi yoʻlga kirib qolsa, oʻzi, oilasi, qarindoshlari, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilikka yuz burgan boʻladi, bu ini dunyo va oxirat baxtiga, saodatiga erishtiradi. Agar, Alloh taolo koʻrsatmasin, mazkur chorrahada yomon yoʻlga burilib ketsa, oʻzi, oilasi, qarindoshlari, xalqi v avatani uchun oʻta koʻngilsiz hodisa sari qadam qoʻygan boʻladi. Bu bilan uning dunyo va oxirati yaxshilikka erishishi qiyinlashib qoladi.

Yoshlar har bir millatning kelajagi ekanligini hisobga oladigan boʻlsak, ularga eʼtibor berishning ahamiyat yana ham ziyodalashadi. Zotan har bir shaxsning kim boʻlishi yoshligidan ayon boʻladi, ularning kamoloti aynan yoshligidan boshlanadi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlarinsonga umr boʻyi hamroh boʻladi. Shuning uchun ham yoshlarning odobli boʻlishlari uchun harakat qilish juda ahamiyatli ish hisoblanadi.” “Ijtimoiy odoblar” asarida Yoshlarga xos odoblardan biri sifatida katta yoshdagi har bir kishini ehtirom qilish nazarda tutiladi. “Yoshlar oʻzidan katta yoshdagi har bir kishini, hususan, qari yoshdagi otaxon va onaxonlarni ehtirom qilishi zarurligi dinimizdagi katta ahamiyat berilgan odoblardan biridir.

Xulosa. Islomiy manbalarida maʼnaviyat masalari keng tarzda yoritilgan. Oʻquvchi-yoshlarda maʼnaviy kompetentligini shakllantirishda ushbu manbalarda foydalanish kutilgan natijalarimiz samaradorligini oshiradi. Maʼnaviyat masalasi doimo kun tartibimizdagi eng muhim jabha hisoblanadi. Shuning uchun ham avvalo yoshlarning maʼnaviyatini yuksaltirish, ulardagi maʼnaviy boʻshliqni toʻldirishda har tomonlama keng yondashish lozim. Islomiy odob haqida soʻz ketar ekan, dunyodagi jamiyki mol-dunyodanda afzal sanalgan odob haqida, ota-ona bolasiga undan koʻra afzalroq narsa hadya qila olmaydigan goʻzal, ibratli odob haqida soʻz yuritilgan boʻladi. Ilohiy manbalardan olingan islomiy odoblarning gʻoyasi ham ilohiy taʼlimot, maqsad va gʻoyalar bilan chambarchas bogʻliqdir. Odobning asosiy gʻoyasi inson zotining ikki dunyo saodatiga erishishini taʼminlashdir. Musulmon inson oʻzining odoblari ila bu dunyoda barcha mavjudotlar bilan uygʻunlikda, hamkorlikda va yaxshi munosabatlar bilan yashaydi. Oxirat dunyosida esa amal



qilgan odoblari savobidan bahramand bo‘ladi. Bu haqiqatni anglab yetish uchun Alloh taoloning insonni yaratishdan murodi va irodasi haqidagi Qur’oni karim oyatlari mazmunini yaxshilab tushunishning o‘zi kifoya.

Islom va uning asosiy ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so‘z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarda ma’naviy kompetentlikni oshirishda munim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “2022 — 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-134-son Farmoni ijrosini taminlashda ushbu tadqiqot ishimiz mayyan darajada xizmat qilishiga umidvormiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 6-son. 70-modda.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar”. HILOL-NASHR” nashriyoti. 2020 yil. 153-bet.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. dis. – T., 1993. - 36 b. Yana: O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993. –112 b.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy AL-JOMI’ AS-SAHIH (1-jild) Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimai Qomuslar Bosh tahririyati Toshkent 1991 7-b
6. Axloq-odobga oid hadis namunalari Hamidulla Hikmatullayev, Abdulaziz Mansurov TOSHKENT “FAN” nashriyoti 1990 27-bet
7. R.Mavlonova, N.Vohidov, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” “Fan va etnologiya” nashriyoti. Toshkent 2010-yil 322-bet.
8. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., 1998 y.
9. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati” T.: 2009 yil. 396 bet.
10. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent 2017 yil 164-bet
11. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Abdullayeva SH.A., Ro‘ziyeva D.I. toshkent 2018 yil., 117 bet.
12. M. Umetbaev. - CHelyabinsk : UralGUFK; Magnitogorsk: MaGU, 2008. – 64 s.
13. Skatkin, M. N. Metodologiya i metodika pedagogicheskix issledovaniy /M. N.Skatkin. - M. : Pedagogika, 1986. – 152 s. – S.54.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola “Ijtimoiy odoblar” asari asosida yoritilgan bo‘lib, odob masalasi Islomda o‘ta muhim o‘rin tutishi haqida boradi. Chunki Alloh taolaga ishonch hosil qilishda odobning o‘rmi juda muhim.

РЕЗЮМЕ

Данная статья основана на труде «Социальный этикет» и рассказывает о важности этикета в исламе. Потому что манеры играют очень важную роль в доверии Богу.

SUMMARY

This article is based on the work «Social Etiquette» and talks about the importance of etiquette in Islam. Because manners play a very important role in trusting God.